

MAKTABGACHA TA'LIM YOSHIDAGI BOLALARNI INTEGRATSIYALASHGAN TA'LIM JARAYONIDA MA'NAVIY - AHLOQIY TARBIYALASHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Abdualimova Shabnam Hasan Qizi

Termiz davlat universitetining Pedagogika instituti, maktabgacha ta'lim yo'nalishi magistranti

Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarmog'ini kengaytirish, malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta'lim - tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish, bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori[1] bilan tasdiqlangan «Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha 2017-2021 yillarga mo'ljallangan dastur»ning asosiy maqsadli vazifalari va yo'nalishlari qatorida ilg'or xorijiy tajribani hisobga olgan holda bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish sharoitlarini yaratish belgilangan.

Qarorga ko'ra, maktabgacha ta'lim tizimini tanqidiy o'rganish va yanada takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish bo'yicha komissiya tashkil etilgan hamda uning asosiy vazifalari qatorida quyidagilar belgilangan:

- maktabgacha yoshdagi bolalarni uyg'un rivojlantirish sohasidagi ilg'or xorijiy tajribani hisobga olgan holda, sifatli maktabgacha ta'limni tashkil etishda davlat talablarini qayta ko'rib chiqish;
- mavjud amaliyot va ilg'or xorijiy tajribani o'rgangan holda, nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini litsenziyalashning soddalashtirilgan tartibini joriy etish, ularning tashkiliy-huquqiy shakllarini takomillashtirish bo'yicha takliflar tayyorlash.

O'zbekiston Respublikasini rivojlangan mamlakatlar qatoridan joy egallashini ta'minlash, yosh avlodning komil inson bo'lib kamol topishiga bevosita bog'liqdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev rahbarligida 2017 yil 16 avgust kuni bo'lib otgan yigilishda maktabgacha ta'lim tizimini tarkibiy jihatdan tubdan isloh qilish, mazkur muassasalarga bolalarni to'la qamrab olish bo'yicha muhim vazifalar qo'yildi. Bu boradagi tahlillar natijasida qisqa vaqtda uchta yirik hujjat-O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 9 sentyabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3261-sonli Qarori, 30 sentyabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari"gi PF-5198-sonli Farmoni hamda "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi -faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-3305-sonli Qarori qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi, uning hududiy bo'linmalarining asosiy vazifalari va faoliyati yo'nalishlari qatorida ilg'or xorijiy tajribani hisobga olgan holda maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama intellektual, ahloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish berish belgilandi.

Barcha mamlakatlarda pedagoglar faoliyati uchun maksimal qulay sharoitlarning yaratilgani, pedagogning ijodiy erkinligi, katta hajmdagi hisobotlarning yo'qligi, davlat bog'chalariga pedagoglari ijtimoiy statusining yuqoriligi, bolalar o'zlarini namoyon qilishlari uchun yaratilgan ijodiy muhit, jumladan xonalarning hatto kichik detallarigacha qulay dizayni va jihozlangani, ular uchun boy adabiyotlar va rivojlantiruvchi o'yinlarning mavjudligi, erta bolalikdan jamiyatda o'zini tutish va shaxsiy gigiena ko'nikmalarini tarbiya qilish maktabgacha ta'lim tizimi muvaffaqiyatining asosini tashkil etadi.

Quyida biz ba'zi bog'chalarning faoliyatiga nazar tashlaymiz.

Koreya bog'chalarda asosan musiqa, rasm, hisoblash mashg'ulotlari integratsion shaklda tashkil etiladi. Koreys bog'chalarida bolalarda mustaqillik, tashabbuskorlik, ijodkorlik kabi ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirishga katta e'tibor berilishi, ta'lim-tarbiya jarayonini uzviylikda olib borilishi, O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tizimida Koreya tajribasidan foydalanish imkoniyatlarini kengligini ko'rsatadi.

Xitoy bog'chalarida bolalar tarbiyasi integratsion ko'rinishga ega ya'ni, jismoniy rivojlanish bilan uyg'unlikda olib boriladi, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni jismonan, aqlan, estetik rivojlanishlarida ko'mak beradi, bu bilan bolani eng kichik yoshidan barkamol shaxs bo'lib rivojlanishini ta'minlaydi. Bolalar bog'chasida tarbiyaning asosiy vositasi o'yin hisoblanadi, u yerda bolalarning rivojlanishi uchun butun sharoitlar yaratilgan, o'z qobiliyatlarini namoyon qilish imkoniyatlari ta'minlangan. Bolalar bog'chasida qat'iy tartib va intizom o'rnatiladi, bolalar erkaliklari ta'qiqlanadi. Tarbiyachilar bolaning shaxsiy hususiyatini yaxshi biladilar, lekin bu hususiyatlari tug'ma deb hisoblamaydilar. Bolalar bog'chasida o'zaro urushlar, erkaliklar, kattalar talabiga bo'ysunmaslikka yo'l qo'yilmaydi, yomon intizom ilk ko'rinishidayoq bartaraf etiladi, agar bola o'zini yomon tutsa, tarbiyachi

Hozirgi taraqqiyot bosqichida jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarini tashkil qilishning istiqbollari: muammo va yechimlar. Xalqaro miqyosidagi ilmiy amaliy-anjuman. 2022 yil 28-29 aprel

uning yoniga kelib, bu holatini sezganini bildiradi, lekin gapirmaydi. Bola o'z aybini tushungachgina tarbiyachi uning nomini aytib chaqiradi. Urush, xonadan haydab chiqarish, umuman jazolash man etiladi. Intizomni yaxshi ushlab turishning samarali yo'li bu - taqqoslash va rag'batdir, deb hisoblashadi. Bolalarni yoshligidan boshlab o'z xulq-atvorlarini tahlil etishga o'rgatib boriladi. Bolalar diqqat bilan eshitadilar va to'g'ri hayotiy misollarni eslab qoladilar. Har bir tartibsizlikka tanbeh beriladi, aks holda bola bu tarbiyasizlikni to'g'ri hisoblab, o'ziga singdirib olishi mumkin deb hisoblanadi. Xitoy bolalaridagi qat'iylik va mehnatsevarlik an'anaviy fazilatlariga aylangan.

Yaponiyada maktabgacha ta'lim tizimi ham o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Yaponlar farzandlari bilan 5 yoshgacha shoh bilan gaplashgandek muomala qilishadi, 5 yoshdan 15 yoshgacha qul bilan gaplashgandek, 15 yoshdan keyin esa tengdoshi bilan gaplashgandek muomala qilishadi. 15 yoshli o'smir - o'zining majburiyatlarini yaxshi biladigan, va qoidalarga bo'ysinadigan yoshdagi katta odam deb hisoblanadi. Yaponlar bolaning erta voyaga yetishi tarafdoridirlar. Turli yoshlarda tarbiyaning turli muammolariga urg'u beradi. Masalan, 1 yoshda - o'ziga ishonch hissini uyg'otish. 2 yoshda - amaliy san'at qul mehnatini ko'rsatish. 3 yoshda - burch hissini tarbiyalash. 4 yoshda - yaxshilik va yovuzlikni farqlashga o'rgatish. 5 yoshda - liderlik hislatlarini tarbiyalash, mustaqillikka, reja tuzish va ulami bajarishga o'rgatish.

Yaponiyada maktabgacha tarbiya beshta yo'nalishni o'z ichiga qamrab olgan, bular: - ijtimoiy munosabatlar; - salomatlik, xavfsizlik; - til; - atrof muhit; - his-tuyg'ularini ifodalash. Bolalarga oilada va jamoatda muomala qilishni, o'ziga ishonishni, yangi ko'nikmalarni egallashga, xalq ertaklarini va kitoblarni o'qib tilga va madaniyatga o'rgatadilar. Yaponiyadagi maktabgacha tarbiya tamoyillari - sog'lom, mustaqil, har tamonlama rivojlangan, bilimga ega va o'z madaniyati hamda Vatanini sevuvchi jamiyat a'zosini yaratishga qaratilgan.

Yapon bolalari tabiatni juda sevadilar va chuqur his etadilar. Balkim, aynan shuning uchun ham Yaponiyada turli daraxtlar, tabiat hodisalariga bag'ishlangan milliy bayram va festivallar ko'p bo'lsa kerak. Yoshlikdan go'zallikni sevishni va tabiatni his etishni o'rgatilgan yapon bolalar bu tuyg'ular bilan umrbod yashaydilar.

Malayziya maktabgacha ta'lim tizimida 5 xil: ijtimoiy muloqatchanlik, intellektual salohiyat, jismoniy yetuklik, ruhiy tarbiya, mehnat ko'nikmalarini shakllantirish kabi yo'nalishlarda bolalarni rivojlantirib borilishi ham maktabgacha yoshdagi bolalar ma'naviy-axloqiy tarbiyasiga integratsion yondashishni belgilaydi.

Fransiyada maktabgacha talim tashkilotlarida mashg'ulotlar tonggi soat 8:30 dan kechki 16:20 ga qadar olib boriladi. Chorshanba kundan tashqari barcha kunlar mashg'ulot kunlari hisoblanadi. Chorshanba kunlari bolalar raqs, dyuzdo, futbol va shu kabi boshqa mashg'ulotlar bilan band bo'ladilar. Tashkilotlarda tabiatga doir mashg'ulotlar va rasm chizish ko'nikmalari shakllantiriladi. Shuningdek, chiroyli yozuvga alohida etibor qaratiladi. "Escargot" deb ataluvchi metod bog'chalarda keng qo'llaniladi va ushbu metod bolalarda tabiatga bo'lgan muhabbatni va hayvonlarga bo'lgan mehrni oshirishga xizmat qiladi. Barcha bolalarning faoliyati tabiat quchog'ida tashkil etishga va tarbiyaviy sifatlarni tabiat bilan uyg'un holda rivojlantirishga, shaxsiyatlik, ijtimoiy-emotsional, kommunikativ, xabardorlik, matematik, jismonan, ijodiy kabi bolalar rivojlanishning olti yo'nalishiga ahamiyat berilishi talim-tarbiya jarayoniga integrativ yondoshishni bildiradi.

Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda integratsion yondashuv asosida maktabgacha yoshdagi bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash holatini o'rganish maqsadida quyida bir nechta horij mamlakatlari tajribasi tahlil etilgan. Biz barcha mamlakatlarning maktabgacha ta'lim tashkilotlarining tizimiga nazar tashladik. Axamiyatlisi Germaniya maktabgacha ta'lim tizimi bo'ldi. Keling, Germaniya maktabgacha ta'lim tizimini batafsil o'rganib chiqamiz. Germaniyada maktabgacha ta'lim tashkilotlarining rang-barang shakllari va turlari hayratlantiradi. Eng qiziqarli bolalar bog'chalari turlari quyidagicha:

1. Waldkindergarten (nemischa Wald so'zidan - o'rmon, Kindergarten - bolalar bog'chasi). Bunday bolalar bog'chalarini yaratish fikri Skandinaviyada boshlangan. Ko'pincha bunday bog'chalar o'rmonda joylashadi. Bolajonlar doimo ochiq havoda bo'ladilar, daraxtlar va boshqa o'simliklarni o'rganadilar, tabiiy materiallardan turli narsalar yasaydilar. Bolalarga tabiatni sevish va uni asrab-avaylash o'rgatiladi.

2. Bauernhofkindergarten (nemischa Bauernhof so'zidan - dehqon xovlisi, qo'rg'oni; Kindergarten - bolalar bog'chasi). Bunday bog'chalar dexqon xo'jaliklarida, fermalar yoki ularga yaqin yerlarda joylashgan bo'ladi. Bolalar kuchlari yetguncha fermerlarga mollarni boqishda, dala va bog' larda sabzavot va mevalar o'stirishda yordam beradilar.

3. Reggio-Kindergarten. Bunday bolalar bog'chalarini yaratish konsepsiyasi Italiyaning Rejio-Emilio shahrida paydo bo'lgan va nomi ham shundan olingan. Bunday maktabgacha tarbiya tashkiloti bozor (yarmarka) maydonini eslatuvchi -o'rtada katta bir xona (xoll) va undan shaharchaning turli

Hozirgi taraqqiyot bosqichida jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarini tashkil qilishning istiqbollari: muammo va yechimlar. Xalqaro miqyosidagi ilmiy amaliy-anjuman. 2022 yil 28-29 aprel

«mavzalariga» - kichik xonalarga chiquvchi inshootni eslatadi. Bunday turdagi bog'chalarda bolalar joylashgan muhit asosiy tarbiyachi deb ataladi. Har kuni ertalab bolalar tarbiyachi bilan katta xonada yig'ilishib, kun rejasini maslahatlashadilar, so'ngra xonalarga tarqalishadi. Bitta xona qurilish va turli konstruktorlar yig'ish xonasiga aylantiriladi. Bu yerda bolalar kubiklar o'ynashi, konstruktorlar yig'ishi mumkin. Yana rasm chizish xonasi ham bor, odatda u yerda bo'yoqlar va devorlarga vatman qog'ozlar osib qo'yilgan. Bolalarga maxsus kiyim kiygazib ko'yiladi va ular xohlagan yerlariga - devorlar, pol, bir-birlariga rasm chizishlari mumkin. Bu yerda hunarmandchilik, musiqiy va boshqa xonalar ham bor. Bunday bog'chalarda tarbiyachilar bolalarga faqat atrofdagi joyni o'zlashtirishlarida ko'maklashadilar.

4. Freinet-Kindergarten. Maktabgacha pedagogikaning bu yo'nalishi o'z nomini bolalar tarbiyasiga o'ziga xos yondashish usulini ishlab chiqqan italiyalik oilaviy juftlik familiyasidan olingan. Bu yo'nalishning asosiy tamoyili - bolaning butunlay erkinligi va mustaqilligidir. Fraynet-bog'chasida bolalar nima qilishlari, qanday o'yin o'ynashlari, nima bilan shug'ul lanishlari, qachon ovqatlanishlari va uxlashlarini o'zlari hal qiladilar. «Bolalar konferensiyasi» deb atalmish yig'ilishlarda bolalar MTT doirasida hulq-atvor qoidalarini o'zlari belgilashadi. Bunday bog' cha larda ijod qilish, syujet-rol o'yinlari, eksperimentlar, tabiat qo'yni yoki shaharning korxonasi va tashkilotlariga ekskursiyaga borishlarga katta ahamiyat beriladi.

5. Integratsion bolalar bog'chalari. Bunday turdagi MTT larda sog'lom bolalar bilan birgalikda jismonan va ruhiy nosog'lom bolalar birgalikda tarbiyalanadi. Bunday sharoit oddiy bolalar uchun chidamlik, bag'rikenglik va hurmat qilishni o'rganishga ajoyib imkoniyat, deb qaraladi. Imkoniyatlari cheklangan bolalar jamiyatdan ajralgan holatda bo'lmaydilar, o'z tengdoshlari bilan muloqot va hamjihatlikda bo'lishni o'rganadilar. Shunday bog'cha va maktablarning soni ko'pligi Germaniyada nogironlarning yashashi, ta'lim olishi va o'zini namoyon qilishi uchun qulay sharoitlar yaratadi.

6. Internatsional bolalar bog'chalari. Bunday MTT lar emigrantlar uchun yaratilgan bo'lib, ko'pincha ularni emigrantlarning o'zlari farzandlari uchun tashkil etadilar. Germaniyada turk-nemis, yahudiy, rus-nemis bolalar bog'chalari juda ko'p. Bu tashkilotlarning konsepsiyasi bilingvallik[5]tamoyiliga asoslangan. Ya'ni, guruhlarda doimo bolalar bilan ona tilida so'zlovchi tarbiyachi bilan birga nemis tilida so'zlovchi tarbiyachi ham bo'ladi. Shuningdek, Germaniyada Valdorf bolalar bog'chalari va Montessori tizimida ishlaydigan bolalar bog'chalari ham mavjud. Agar o'rta statistik nemis bolalar bog'chasini olsak, uning faoliyati loyihalar tamoyili asosida tashkil etilganligi namoyon bo'ladi. Masalan, «Kasb» loyihasi davrida bolalar tarbiyachi bilan ekskursiyalarga boradilar, turli narsalar yasaydilar, teatrlashtirilgan sahnalar qo'yadilar, pechene pishiradilar, loydan narsalar yasaydilar va hokazo. Germaniya maktabgacha tashkilotlarida bolalarning ijodkorligi, ma'naviy-axloqiy tarbiyasiga yondashishda integratsiya usulidan keng foydalaniladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni tarbiyalashdagi bunday ijobiy qarashlar bilan bir vaqtda, xulosa tariqasida aytish joizki xorijiy mamlakatlarning maktabgacha ta'lim tizimlarini o'rganish, ularning ilg'or tajribasini tahlil etish va respublikamiz sharoitiga moslashtirish bo'yicha aniq chora-tadbirlarni ishlab chiqish mamlakatimiz maktabgacha ta'lim tizimini takomillashtirib zamonaviylashtirishga imkon yaratadi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Adabiyotlar

1. Бердиева, Ханифа Мейлиевна Изучение научных основ механизации и автоматизации управления сельским хозяйством в курсе физики средней школы (на материале сельских школ Узбекистана). <https://nauka-pedagogika.com/pedagogika-13-00-02/dissertaciya-izuchenie-nauchnyh-osnov-mehanizatsii-i-avtomatizatsii-upravleniya-selskim-hozyaystvom-v-kurse-fiziki-sredney-shkoly-na-m>

2. Бердиева Х.М., Шаманов М.Х., Абдурахмонова Р.Х., Гулбоева Б.Н. Технология и методика обучения учащихся общеобразовательных школ // Студенческий вестник: электрон. научн. журн. 2018. № 29(49). URL: <https://internauka.org/journal/stud/herald/49> (дата обращения: 10.03.2022).

3. Бердиева Х.М. Развитие профессиональных коммуникативных навыков педагогов в сфере образования. <https://s.siteapi.org/d955411c180ee78/docs/khhp4bee6u8g8goowcsg0gccg8os0kw>

4. Berdiyeva Muhabbat Meyliyevna Pedagogical support and development of the intellectual opportunities of children in preschool education <http://www.idpublications.org/wp-content/uploads/2019/12/abstract-pedagogical-support-and-development-of-the-intellectual-opportunities-of-children.pdf>

5. Meyliyevna Berdiyeva Muhabbat. The quality of preschool education at the present stage. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. Year : 2021, Volume : 11, Issue :

10. [10.5958/2249-7137.2021.02402.2](https://www.indianjournals.com/ijor.aspx?target=ijor:aca&volume=11&issue=10&article=351#aff001)
<https://www.indianjournals.com/ijor.aspx?target=ijor:aca&volume=11&issue=10&article=351#aff001>
6. Meyliyevna Berdiyeva Muhabbat Tasks for preschool educators. [10.5958/2249-877X.2021.00078.3](https://www.indianjournals.com/ijor.aspx?target=ijor:sajmmr&volume=11&issue=10&article=023)
<https://www.indianjournals.com/ijor.aspx?target=ijor:sajmmr&volume=11&issue=10&article=023>
7. Berdiyeva M.M. Formation of intellectual culture of a preschooler. <https://scientific-conference.com/images/PDF/2019/55/International-scientific-review-LIV-ISBN.pdf>
8. Бердиева Ханифа Мейлиевна. Мактаб ўқувчиларини касб-хунарга ўргатиш йўллари. <https://sciencecentrum.pl/wp-content/uploads/2020/05/POLISH%20SCIENCE%20JOURNAL%20E2%84%9626%20%282%29%20%28web%29%20%283%29.pdf>
9. Бердиева Ханифа Мейлиевна. Таълим тизимини модернизациялашдаги муаммолар ва уларни бартараф этиш усуллари. <https://sciencecentrum.pl/wp-content/uploads/2020/05/POLISH%20SCIENCE%20JOURNAL%20E2%84%9626%20%282%29%20%28web%29%20%283%29.pdf>
10. Бердиева Мухаббат Мейлиевна. Педагогик қўллаб-қувватлаш асосида илк ёшдаги болаларни интеллектуал ривожлантириш. “Профессионал таълим тизимида ислохотлар: малака ошириш таълим турида инновацион ғоялар” мавзусидаги Халқаро илмий-амалий конференция. <https://staff.tiame.uz/storage/users/546/articles/iMJfaUDoPQYZqSxUhG7olj9aZ9XSLff9CSErkMxL.pdf>
11. Usmanova Saodat Erkinovna. (2021). Formation of spiritual and moral qualities of preschoolers on the basis of public education. Middle European Scientific Bulletin, 11. <https://doi.org/10.47494/mesb.2021.11.421>
12. Усманова Саодат Эркиновна Возможности Использования Мультимедийных Компьютерных Программ В Развитии Детей Дошкольного Возраста. <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=46438589>
13. Jumayeva malika aliyevna, & buriyev jamshid jumanazarovich. (2021). The role of activity in the upbringing and development of the child . International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences, 1(2), 126–129. Retrieved from <https://ijpsss.iscience.uz/index.php/ijpsss/article/view/40>
14. Jumayeva Malika Aliyevna. (2021). Independent musical activity in preschool organizations. Journal of Ethics and Diversity in International Communication, 1(1), 9–10. Retrieved from <https://openaccessjournals.eu/index.php/jedic/article/view/16>
15. Aliyevna, J. M. (2021). The Social Activity of the Educator with the Family. European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630), 12, 401-403. Retrieved from <http://ejlss.indexedresearch.org/index.php/ejlss/article/view/338>
16. Lola Utasheva Shoturaevna. (2021). Social and pedagogical activities in preschool educational institutions. *JournalNX - A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal*, 6(11), 412–415. Retrieved from <https://repo.journalnx.com/index.php/nx/article/view/193>
17. Shoturayevna, U. L. (2021). Development of Creative Competence of Educators in Preschool Educational Institutions. *European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630)*, 12, 395-397. Retrieved from <http://ejlss.indexedresearch.org/index.php/ejlss/article/view/336>
18. Radjabova G.M. The educational value of oral folk art for preschoolers // European research № 1(75) / Сб. ст. по мат. «European Research: Innovation in Science, Education and Technology/Европейские научные исследования: инновации в науке, образовании и технологиях»: LXXV межд. науч.-практ. конф. (Лондон. 16 марта, 2022). С.
19. Berdieva M.M. Increasing the research activity of a pupil of a preschool organization // European research № 1(75) / Сб. ст. по мат. «European Research: Innovation in Science, Education and Technology/Европейские научные исследования: инновации в науке, образовании и технологиях»: LXXV межд. науч.-практ. конф. (Лондон. 16 марта, 2022). С.
20. Berdieva Kh.M. Functions of the organization of advanced training of teachers in the field of education // European research № 1(75) / Сб. ст. по мат. «European Research: Innovation in Science, Education and Technology/Европейские научные исследования: инновации в науке, образовании и технологиях»: LXXV межд. науч.-практ. конф. (Лондон. 16 марта, 2022). С.
21. Utasheva L.Sh. Introducing preschoolers to the world of fiction // European research № 1(75) / Сб. ст. по мат. «European Research: Innovation in Science, Education and

Hozirgi taraqqiyot bosqichida jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarini tashkil qilishning istiqbollari: muammo va yechimlar. Xalqaro miqyosidagi ilmiy amaliy-anjuman. 2022 yil 28-29 aprel

Technology/Европейские научные исследования: инновации в науке, образовании и технологиях»: LXXV межд. науч.-практ. конф. (Лондон. 16 марта, 2022). С. {см. сборник}.

22. Usmonova S.E. Plot construction as a means of developing the creative abilities of children // European research № 1(75) / Сб. ст. по мат. «European Research: Innovation in Science, Education and Technology/Европейские научные исследования: инновации в науке, образовании и технологиях»: LXXV межд. науч.-практ. конф. (Лондон. 16 марта, 2022). С.

23. Muhammadiyeva F.T. Technology familiarization of preschoolers with various materials through cognitive research activities // European research № 1(75) / Сб. ст. по мат. «European Research: Innovation in Science, Education and Technology/Европейские научные исследования: инновации в науке, образовании и технологиях»: LXXV межд. науч.-практ. конф. (Лондон. 16 марта, 2022). С

24. Mamatuminova M.G. Features of the use of animation in the development of creative abilities of preschoolers // European research № 1(75) / Сб. ст. по мат. «European Research: Innovation in Science, Education and Technology/Европейские научные исследования: инновации в науке, образовании и технологиях»: LXXV межд. науч.-практ. конф. (Лондон. 16 марта, 2022). С.